



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 339-346 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

EKSPORT SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Raximov T.J.,

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasini mudiri,
PhD, dotsent, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada eksport salohiyatidan samarali foydalanish ahamiyati, zarurligi, mavjud imkoniyatlari, ustuvor vazifalari, yo'nalishlari, usullari va ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье освещаются важность, необходимость, существующие возможности, приоритеты, направления, методы и особенности их реализации для эффективного использования экспортного потенциала.


Abstract. This article highlights the importance, necessity, existing opportunities, priorities, directions, methods and specific features of their implementation of the effective use of export potential.

Kalit so'zlar. Eksport, eksport salohiyati, iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, tadqiqot, mahsulot.

Ключевые слова. Экспорт, экспортный потенциал, экономика, национальная экономика, исследования, продукция.

Key words. Export, export potential, economy, national economy, research, product.

So'nggi yillarda jahon miqyosida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga erishish uchun yetakchi tarmoqlarni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyati uning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi ko'rsatkichi bo'lib ko'rinadi hamda mavjud resurslar yoki yaratilgan tovarlar va xizmatlarni ularga eksport qilish qobiliyatini aks ettiradi. O'z navbatida, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari uning o'sishining strategik muhim jihatini tashkil etadi. Mintaqaning eksport salohiyatining an'anaviy ta'rifi hududdan tashqari bozorning sifati va raqobatbardoshligini ta'minlaydigan mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish qobiliyati sifatida belgilanishi mumkin. Iqtisodiy ma'noda mintaqaning eksport salohiyati mavjud hududiy sanoat tuzilmasini hisobga olgan holda jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi sifatida belgilanadi.



1-rasm. Eksport imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish.¹

Eksport salohiyatini oshirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Olib borilgan tadqiqotlarda eksport salohiyati tushunchasi iqtisodiy salohiyatga nisbatan torroq, lekin shu bilan birga bir hil va aniqlangan bo'lib, uni talqin qilish va baholashni osonlashtiradi [1]. Shu bilan birga, eksport salohiyati to'g'risida yagona tushunchaning yo'qligi unga xos tasnif turlarini aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish orqali eksport salohiyatini milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida aks ettiradi. Ushbu yondashuv potensial va resurslar o'rtasidagi munosabat hamda ularning bir-birini to'ldirishini ko'rsatuvchi resurs yondashuvi sifatida talqin qilinadi.

Boshqa bir tadqiqotlarga ko'ra, eksport salohiyati xususiyatlari uning ko'p bosqichli yo'nalishini o'z ichiga oladi. Bu esa korxonalar, mintaqaviy yoki milliy darajada shakllantirilishi va rivojlanishi mumkin. Shunga asosan, eksport salohiyatining rivojlanish ko'lami sanoat yo'nalishi va ishtirokchilarga bog'liq bo'ladi. Ushbu jarayon ishlab chiqarishga tayyorlik ko'rishda eksport salohiyatini rivojlantirish uchun mavjud omillar ta'sirini ko'rsatadi [2].


Yana bir tadqiqotlarda eksport salohiyatini rivojlantirishning turli sohalarga tadbiriq etishi bayon etiladi. Sanoat korxonalarining eksport salohiyatini rivojlantirishni boshqarish mexanizmi ularning eksport salohiyatini shakllantirish va undan samarali foydalanishga qaratilgan qoidalar va qarorlar qabul qilish tartib-qoidalari majmuidir [3].

¹ Muallif ishlanmasi

Unga asosan, har bir tarmoqning eksport salohiyati uni ishlab chiqarish, kadrlar, moliyaviy va bozor imkoniyatlari umumiyliigi, raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish va tashqi bozorlarga eksport qilish qobiliyati bilan belgilanadi.

Yana bir tadqiqotlarda iqtisodiyot tarkibida eksport salohiyatini yuksaltirish masalasi tadqiq qilinadi. Ya'ni, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi strategiyasi uni tarkibiy qayta qurish bilan birgalikda eksport salohiyatini yuksaltirishga erishish bilan bog'liq bo'ladi [4].

Tadqiqotlarga asosan, eksport salohiyati kompleks ko'rsatkich sifatida korxonaxususiyatlari va xarakteristikasi, uning mahsulotlarini sotish mumkin bo'lgan bozorlar xususiyatlarini hisobga oladi, uning tabiatidan (xususiyatlari, xarakteristikasi va o'ziga xos jihatlari) kelib chiqqan holda potensial sotuv bozoriga qo'yiladigan talablar ro'yxatini aks ettiradi [5]. Unga asosan, tovar jami eksport faoliyatining negizini tashkil etadi. Agar tovar xorijiy xaridorlar ehtiyojlarini qondira olmasa, har qanday urinishlar va qo'shimcha xarajatlar tovarning tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlashga ta'sir ko'rsatmaydi.



2-rasm. Eksportni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.²

Boshqa tadqiqotlarga asosan, eksport salohiyati va uni oshirish bevosita ishlab chiqarish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Eksportga yo'naltirilgan yetakchi tarmoqlarning mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari o'sishi, shuningdek, savdo bozorlari imkoniyatlarining o'sishi eksport yetkazib berish, ya'ni yetkazib berishning kengayishini ta'minlaydi [6].

Yana bir tadqiqotlar eksport salohiyatini oshirish bevosita tashqi savdoni erkinlashtirishni taqozo qilishini asoslaydi. Ya'ni, tashqi savdoni erkinlashtirish iqtisodiy ochiqlik darajasining o'sishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi,

² Muallif ishlanmasi

raqobatbardoshlikning kuchayishi va mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi [7].

Boshqa tadqiqotlarga asosan, eksport salohiyatini oshirish korxonada amalga oshirilishi lozim. Korxonaning eksport salohiyatini o'rganish zarurati biznesning xalqaro iqtisodiy aloqalari sohalarining kengayishi munosabati bilan paydo bo'ldi [8]. Buning uchun ushbu aloqalarni globallashtirish va xalqaro iqtisodiy hamkorlik jarayonlariga to'liqroq kiritish zarur. Ushbu salohiyatini oshirishga turli omillar ta'sir qiladi. Ya'ni, korxonaning eksport salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish samaradorligini oshirish jarayoni quyidagi omillar bilan tavsiflanadi [9]:

- materiallar va butlovchi qismlar, uskunalar, texnologiyalar va nou-xau importi. Sanoatda eksport assortimentidagi mahsulotlar tannarxidagi import komponentlari ulushi 40 foiz yoki undan ko'p bo'lishi mumkin. Chunki, mahalliy ishlab chiqarish xorijiy ishlab chiqarishga qaraganda sekin rivojlanadi.

- xalqaro hamkorlik. Mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasi doimo xalqaro talablarga javob bermaydi. Shu bois, korxonalar o'zaro hamkorlik qilishlari va import qilinadigan sifatli yoki shunga o'xshash mahsulotlar ishlab chiqarishlari kerak.

- erkin iqtisodiy zonalar tadbirkorligi. Tadbirkorlikning mazkur turi kompaniyaga tashqi bozorga chiqish uchun mahsulot sifatini doimiy ravishda oshirib borishi mumkin bo'lgan maqbul joyni izlab topish imkonini beradi.

- qalbaki mahsulotlar. Korxonada bunday mahsulotlar mavjudligi uning raqobatbardoshligini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu bois, bozorda zararli mahsulotlar paydo bo'lishining oldini olish kerak.

- madaniyatlararo marketing kommunikatsiyalari. Bu hozirgi kunda eksport salohiyatini shakllantirish, amalga oshirish va rivojlantirish nuqtai nazaridan eng istiqbolli bo'lib hisoblanadi. Bu borada sinergetik ta'sirga erishish uchun korxonalar, iqtisodiy missiyalar va xalqaro ko'rgazma tadbirlari o'rtasidagi biznes aloqalarining kombinatsiyasi zarur. Makro va mikro darajada amalga oshirilayotgan ushbu tizimni boshqarish korxonalarining eksport salohiyatini samarali shakllantirish va amalga oshirishni nazorat qilish maqsadida yaqin va uzoq xorij bozorlariga chiqishni ta'minlaydi.

- milliy davlat tomonidan tartibga solish. Eksport faoliyati yangi boshlanuvchi eksportchilar, kichik va o'rta korxonalar uchun murakkab iqtisodiy jarayon bo'lib, xavf-xatarlar bilan birga keladi va moliyaviy xarajatlar qilishni talab qiladi. Biroq, milliy eksportni rag'batlantirish ko'pgina mamlaka hukumatlari tomonidan amalga oshirilayotgan istiqbolli yo'nalish bo'lib sanaladi. Ushbu maqsadlar uchun davlat budjetidan mablag'lar ajratiladi. Xususan, eksport ta'minotini kafolatlash va sug'urtalash,

eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni kreditlash va boshqalar shular jumlasidandir.



3-rasm. Eksport salohiyatidan samarali foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.³


Darhaqiqat, eksport salohiyatidan samarali foydalanish mavjud imkoniyatlarga asoslanadi va qator o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, potensial mahsulot ishlab chiqariladigan barcha imkoniyatlar, vositalar, resurslar, jumladan o'sish potentsiali ta'siri majmuini belgilaydi. Ya'ni, eksport mahsulot yoki mahsulotni tashqi iste'molchilarga sotishga asoslanadi. Aniqlik, eksport salohiyati xalqaro savdoning rivojlanishini belgilab beradi. Davlat iqtisodiyotini rivojlantirish omili bo'lib, davlatning tashqi va ichki salohiyatini ko'p yo'nalishli shakllantirish hamda belgilangan istiqbolni rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu davlatlar o'rtasida eksport aloqalarini qurish va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, korxonaning eksport salohiyati korxonalar, tarmoqlar, hududlar, mahsulot, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun xorijga sotish maqsadida turli yondashuvlarga asoslanadi. Bu esa resurslar, mavjud va potensial imkoniyatlari majmuini o'ziga birlashtirib, resurs, tizim va salohiyat kabi unsurlar asosida taraqqiy qiladi. Shunga asosan, eksport salohiyatini rivojlantirish uchun davlatning tarmoqqa tegishlilikni shakllantirish va rivojlantirish, turli sohalarining ichki va tashqi holati eksport

³ Muallif ishlanmasi

salohiyatining rivojlanish darajasini belgilaydi. Eksport faoliyati xorijiy valyuta tushumlari oqimini ta'minlaydi. Bu esa korxonaga va davlat uchun foydali sanaladi. Eksport ishlab chiqarishning texnik darajasi va mahsulot sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishni rag'batlantiradi. Eksport faoliyati resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va ishsizlikni kamaytirishga ham yordam beradi. Eksport turli manfaatdor guruhlar, ya'ni mulkdorlar, menejerlar, xodimlar, raqobatchilar va boshqalar nuqtai nazaridan korxonaga samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalanishni yaxshilaydi.

Eksport salohiyatini rivojlantirish murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mintaqaviy faoliyatining barcha bosqichlarida ichki iqtisodiy va tashqi iqtisodiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli jarayon bo'lib hisoblanadi. Eksport faoliyatini mintaqaviy darajaga kengaytirish jarayonlari esa mintaqaviy siyosatni ishlab chiqishni taqozo etadi. Masalan, o'tish davrida davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishi bilan bir qatorda hududlarning eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish ustidan vertikal nazorat eksport faoliyatini liberallashtirish va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning operativ-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishga imkon beradi.



4-rasm. Mahsulot sertifikatatsiyasi va xalqaro standartlarga mosligi.⁴

Zamonaviy sharoitda uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, ilmiy-texnikaviy rivojlanish va import o'rnini bosuvchi xalqaro iqtisodiy va savdo aloqalarini o'rnatish bo'yicha mintaqaviy strategiyani ishlab chiqish lozim. Bu esa hududning eksport salohiyatini rivojlantirish samaradorligini boshqarish tashqi bozorlarda faoliyatning eng yuqori

⁴ Muallif ishlantmasi

natijasiga erishishga qaratilgan makro, mezo va mikro muhit funksiyalarining ko'p bosqichli tizimini aks ettiradi.

Shunday qilib, asosiy tarmoqlarning eksport salohiyati iqtisodiy rivojlanish mintaqalarida asosiy barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi. Bu esa davlat budjetida valyuta daromadlarining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi zamonaviy pozitsiyasi qarama-qarshi tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Bu esa qator parametrlarga ko'ra rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida oraliq pozitsiyani egallaydi. Bu eksport tarkibiy qismi uchun to'g'ri keladi. Eksport valyuta daromadining asosiy manbai sifatida xorijda asbob-uskunalar va iste'mol tovarlari sotib olish uchun zarur bo'ladi.

Fikrimizcha, eksport salohiyatini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- mavjud mahsulotni joriy etish maqsadida istiqbolli bozorlar jozibadorligini oshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish;

- potensial eksport bozorlarini tanlash;

- bozorda raqobatbardosh ustunliklarni aniqlash;

- bozorda mahsulotni tijoratlashtirish strategik rejasini ishlab chiqish.

Xulosa shuki, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyati uning tarkibiy qismi sifatida butun milliy iqtisodiyot, sanoat, alohida tarmoqlar yoki korxonalarining tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lgan mahsulotni eksport qilish uchun ishlab chiqarish qobiliyatini aks ettiradi. Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyati potensialni eksport faoliyati uchun zarur bo'lgan resurslar majmui sifatida qaraladi. Bu holatda resurs yondashuvi va uni o'zgartirish jarayoniga yondashuvni birlashtirish nuqtai nazaridan yaxlit hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Unga asosan, jarayon va resurs yondashuvlarining uyg'unligi eksport salohiyatini jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot yoki xizmatlarni yaratish va ishlab chiqarishda foydalaniladigan milliy iqtisodiyot sub'ektlari ichki resurslari majmui sifatida aniqlash imkonini beradi. Boshqa tomondan esa, mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda ushbu sub'ektlarning jahon bozorlarida raqobatbardosh ustunliklarini amalga oshirishga ko'maklashish vositasi sifatida qaraladi. Bu holatda mintaqa iqtisodiyotining aniq ixtisoslashuvi tufayli tovarlar eksporti tarkibidagi tub o'zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреева Е.Л., Малышева Е.В. Теоретические подходы к исследованию экспортного потенциала национальной экономики. // Журнал экономической теории, 2020, Т.17, №2. - с. 266.

2. Шум Н.М., Логинов М.П. Экспортный потенциал как основа системы международных экономических отношений. // Вестник Евразийской науки, 2023, Том15, №5. - с. 7.

3. Кондрашкина И.И., Манин П.В. Механизм управления развитием экспортного потенциала промышленных предприятий. // Вестник Российского университета кооперации, 2017, №3(29). - с. 54.

4. Jiyamuratov R.N. Erkin iqtisodiy hududning eksport salohiyatini oshirishning nazariy masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 6/2023, noyabr-dekabr, (№00068). - 102 b.

5. Boydadayev M.Z. Tadbirkorlik faoliyatida eksport salohiyatini oshirishda to'qimachilik korxonalarining o'rni. // International scientific and practical conference "Improving Uzbekistan's position in international ratings and indexes: theory, practice and strategy". - 1028 b.

6. Рожкова Д.В., Куликова И.В. Экспортный потенциал региона в условиях санкционных ограничений (на материалах Алтайского края). // Экономические отношения, 2023, Том13, №1. - с. 203-216.

7. Sotvoldiyev F.K. O'zbekiston Respublikasi hududlarining eksport salohiyati. // Iqtisodiyotda innovatsiyalar, №6, 2021. - 97 b.

8. Сухих Д.Г., Кац В.М. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Российский опыт. // Вестник науки Сибири, 2015, №2 (17). - с. 62.

9. Оценка конкурентоспособности предприятия [Evaluation of competitiveness of the enterprise] // Электронная библиотека 2000–2014. Available at: <http://www.ciberlinka.ru> (accessed 15 March 2015).

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

